

Muallif: Yoqubov Shamshodbek Shamsiddin o'g'li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Irnazarov Shuxrat Najmetdinovich

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada huquq tizimi va huquqiy tizim tushunchalarining nazariy asoslari, ularning o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, huquq tizimining tuzilishi, elementlari hamda huquqiy tizimning jamiyat hayotidagi o'rni ochib beriladi. Muallif tomonidan ushbu tushunchalarning amaliy ahamiyati ham yoritilib, zamonaviy huquqiy islohotlar kontekstida ularning rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: huquq tizimi, huquqiy tizim, norma, huquq sohasi, institut, qonunchilik, huquqiy munosabatlar, huquqiy madaniyat, davlat va huquq, islohotlar

Kirish: Hozirgi globallashuv sharoitida huquq tizimi va huquqiy tizim tushunchalarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan huquq tizimining qay darajada shakllanganligi va huquqiy tizimning mukammalligiga bog'liqdir. Shu bois ushbu tushunchalarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquq tizimi odatda huquq normalari, institutlari va sohalarining ichki tuzilishini ifodalasa, huquqiy tizim esa kengroq tushuncha bo'lib, u nafaqat huquqni, balki huquqiy ong, huquqiy madaniyat va huquqni qo'llash amaliyotini ham o'z ichiga oladi. Bu ikki tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi huquq tizimi va huquqiy tizim tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berish, ularning o'ziga xos jihatlari aniqlash hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

Huquq tizimi nima va uning tarkibiy elementlari nimalardan iborat?

Huquq tizimi – bu ijtimoiy munosabatlarning xarakterini bilan bog‘liq bo‘lgan huquqning ichki tuzilishi bo‘lib, u huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat‘iy ilmiy izchillikda joylashgan tartibi.

Huquq tizimi hodisasining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

huquq tizimi – ma‘lum jamiyatda amalda bo‘lgan huquqning obyektiv sifatidir, uni avvaldan belgilangan reja asosida barpo etish mumkin emas;

huquq tizimi to‘laligicha huquq bilan mustahkamlangan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga muvofiq keladi. Shu jihatdan olganda, huquq ijtimoiy hodisa sifatida nafaqat o‘zida, balki ichki tuzilishi orqali ham jamiyat xususiyatlarini ifoda etadi;

huquq tizimi tarixiy o‘zgaruvchan, u jamiyat taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda evolyutsion jarayonlarni bosib o‘tadi;

huquq tizimi tarkibiga kiruvchi o‘zaro aloqada bo‘lgan sohalar bir-birini takrorlamaydi va aksincha o‘zaro bir-birini to‘ldiradi;

huquq tizim ijtimoiy munosabatlar mazmuni bilan bog‘liq holda, obyektiv ravishda shakllanadi;

huquq tizimi yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini, ya‘ni bu tizim qanday ichki “qurilma”dan iboratligini ko‘rsatadi;

huquq tizimi uni tashkil etuvchi yuridik normalarning ma‘lum guruhlariga birlashishini ko‘rsatadi;

huquq tizimini tashkil etuvchi yuridik normalar va ular birlashgan guruhlarining o‘zaro farqlanishini ko‘rsatadi;

huquq tizimi ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ularning o‘ziga xosligi yuridik normalarning ham ma‘lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi.

Huquq tizimining quyidagi elementlari mavjud:

- a) huquq normasi;
- b) huquq instituti;
- c) huquq sohasi.

“Huquqiy tizim” atamasi quyidagi uch ma‘noda qo‘llaniladi:

- ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda (bunda u umuman "huquqning ijtimoiy-iqtisodiy turi" tushunchasiga to'g'ri keladi);
- biror mamlakatning huquqiy tizimi ma'nosida;
- turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining birligi ma'nosida.

Binobarin, huquqiy tizim deganda, bir mamlakat doirasida amal qiluvchi obyektiv huquq tushuniladi. Boshqacha aytganda, muayyan mamlakatning huquqiy tizimi ushbu davlatning hududida amal qiladigan va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqdir. Bugungi kunda siyosiy xaritada 200 dan ortiq davlat mavjudligini e'tiborga oladigan bo'lsak, demak shuncha huquqiy tizim shakllangan.

Huquqiy tizimning tarkibiy elementlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) me'yoriy xususiyatga ega bo'lgan tarkibiy elementlar: a) huquq; b) huquq tizimi; v) huquqiy prinsiplari; g) huquqning manbalari
- 2) harakatda (muayyan jarayon orqali) ifodalanadigan tarkibiy elementlar: a) huquq ijodkorligi; b) huquqni amalga oshirish, qo'llash jarayoni; v) huquqiy munosabatlar; g) huquqiy tartibga solish mexanizmi.
- 3) g'oyaviy – mafkuraviy mazmunga ega bo'lgan elementlar: a) huquqiy ong; b) huquqiy madaniyat; v) huquqiy mafkura; g) huquqiy siyosat; d) yuridik fan; e) qonuniylik muhiti va huquqiy tartibot rejimi.
- 4) tashkiliy – tarkibiy elementlar: a) yuridik muassasalar: huquqiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar.

Savol: Huquq tizimi va huquqiy tizimning farqli va o'xshash tomonlarini amaliy misollar yordamida yoritib bering.

Huquqni sohalarga ajratishning mezonlari nimalardan iborat?

Huquq tizimini sohalarga ajratishda huquqiy tartibga solish predmeti va metodi muhim mezon vazifasini o'taydi. **Huquqiy tartibga solish predmeti deganda**, huquq normalari ta'siri doirasida bo'lgan munosabatlar tushuniladi. Ya'ni huquqiy jihatdan tartibga solinishi zarur bo'lgan har qanday ijtimoiy munosabat huquqiy tartibga solish predmetini tashkil etadi. Bir huquq sohasi doirasida tartibga solinadigan munosabatlar quyidagi belgi va sifatlarga ega bo'ladi:

- ijtimoiy munosabatlar barqarorligi va doimiy qayta takrorlanib turishi;
- ushbu munosabatlarni tartibga solish zaruratining obyektiv mavjudligi;
- davlat-huquqiy nazorat ostida bo'lishligi;
- aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

Huquqiy tartibga solish predmeti tuzilmasi misolida uning huquqni sohalarga ajratishdagi o'rni yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Huquqiy tartibga solish predmeti tuzilmasi o'z tarkibiga quyidagi unsurlarni qamrab oladi:

- huquqiy tartibga solish predmeti subyektlari (individual va kollegial). Masalan, konstitutsiyaviy huquq huquqiy tartibga solish predmeti subyektlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ya'ni butun bir xalq, millat, alohida ma'muriy-hududiy birliklar konstitutsiyaviy tartibga solish predmeti subyektlariga aylanishlari mumkin (saylov, referendum kabi jarayonlarda).

- subyektlarning xulq-atvori, hatti-harakati, qilishi. Masalan, ayrim huquq sohalariga asosan qonunga, huquqqa muvofiq hatti-harakatlardan iborat munosabatlarni tartibga soladi. Buni fuqarolik huquqi misolida ko'rish mumkin. Biroq ayrim huquq sohalari huquqqa zid qilinmalardan iborat munosabatlar asosida amal qiladi (masalan, jinoyat huquqi).

- atrof-muhit ob'ektlari: narsalar va hodisalar – bular yuzasidan bir-birlari insonlar muayyan munosabatlar bilan aloqa qiladilar va ma'lum manfaatlar yuzasidan ularga qiziqish bildiradilar. Masalan, yer huquqining sub'ektlariga qaratilgan asosiy obyekt yer tabiiy resurslari hisoblanadi. Yoki moliya huquqida bunday obyekt vazifasini pul mablag'lari bajaradi.

- muayyan munosabatlarning yuzaga kelishi va tugashining bevosita sababchilari bo'lgan yuridik faktlar: hodisa va harakatlar. Masalan, fuqarolik huquqida bunday faktlar sifatida asosan shartnomalar ko'zga tashlanadi. Oila huquqida esa nikoh, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik kabi faktlar birlamchi ahamiyatga ega.

Huquqiy tartibga solish metodi – mavjud ijtimoiy munosabatlarga huquqning ta'sirida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuidir. Huquqiy tartibga solish predmeti huquq normalari bilan qanday munosabatlar tartibga solinishini anglatadigan bo'lsa, huquqiy tartibga solish metodi esa ushbu munosabatlar qanday usul va vositalar yordamida tartibga solinishini bildiradi. Huquqiy tartibga solish metodi huquqni sohalarga ajratishda tartibga solish predmeti kabi birlamchi ahamiyatga ega bo'lmasada, ularning huquqiy tartibga solish samaradorligini oshirishda muhim hissa qo'shadi.

Yuridik adabiyotlarda har bir huquq sohasi o'zining huquqiy tartibga solish metodiga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi. Masalan, ma'muriy huquq uchun – bu davlat-hokimiyat buyruq berish metodi, fuqarolik huquqi uchun – tenglik, ruxsat berish metodi, mehnat huquqi uchun – adolatli taqdirlash va rag'batlantirish metodi, jinoyat huquqi uchun – jazo tahdidi bilan man etish metodi va hokazo.

Huquqiy tartibga solishning quyidagi metodlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- ruxsat berish – shaxslarning faol harakatlar olib borishlari uchun huquqlar taqdim etish;
- man etish – muayyan turdagi harakatlarni sodir etishdan tiyilib turish majburiyatini yuklash;
- pozitiv majburiylov – muayyan faol harakatlarni amalga oshirish majburiyatini yuklash.

Huquq institutlari – bu o'zaro bog'liq bo'lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar guruxidir. Masalan, fuqarolik huquqi sohasida – mulk huquqi instituti, jinoyat huquqi sohasida – davlatga qarshi jinoyatlar instituti kabilar amal qiladi va boshqalar. Ushbu huquq institutlari o'zlari tegishli bo'lgan huquq sohasining ichki tarkibiy qismidir. O'z navbatida, yuqoridagi misolimizda birinchisi – mulkiy munosabatlarni, ikkinchisi davlatga qarshi jinoyat qilishdan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning mustaqil guruhini tashkil etadi. Bu sohadagi huquq institutlari birlashib, muayyan huquq sohasini tashkil etadi.

Huquq sohasi – bu o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi huquq normalari va huquq institutlarining yig'indisidir. Masalan, moliyaviy munosabatlar – moliya huquqi sohasi bilan, mehnat munosabatlari – mehnat huquqi sohasi bilan, yer bilan bog'liq munosabatlar – yer huquqi sohasi bilan tartibga solinadi va hokazo.

Xulosa:

Huquq tizimi va huquqiy tizim jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro bog'liq tushunchalardir. Huquq tizimi huquq normalari, huquq tarmoqlari va institutlarining ichki tuzilishini ifodalaydi hamda ularning izchil va mantiqiy tartibda amal qilishini ta'minlaydi. Huquqiy tizim esa bundan kengroq bo'lib, u nafaqat huquq tizimini, balki huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqni qo'llash amaliyoti, sud tizimi va davlatning huquqni amalga oshirish faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy jamiyatda ushbu ikki tushunchaning uyg'unligi qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, huquqiy tizimning rivojlanganligi jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga, fuqarolarning qonunlarga hurmat bilan qarashiga va huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

Shu bois, huquq tizimi va huquqiy tizimni takomillashtirish, ularni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida demokratik davlat qurish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlat va huquq nazariyasi / Mas'ul muharrirlar H.B. Boboev, H.T. Odilqoriev. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 528 b.
2. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2007. – 916 b.
3. Islomov Z.M. Teoriya gosudarstva i prava (1-qism. Davlat nazariyasi). Darslik. – T.: TGYUI, 2013. – 325 b.
4. Lazarev V.V., Lipen S.V., Saidov A.X. Teoriya gosudarstva i prava: Darslik / akad. K.X. Abduraxmanov tahriri ostida. – M.: Rossiya iqtisodiy akademiyasi, 2008. – 620 b.
5. Odilqoriev X.T., Tulteev I.T. va boshq. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / prof. X.T. Odilqoriev tahriri ostida. – T.: Sharq, 2009. – 592 b.
6. Hans Kelsen. General Theory of Law and State. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.
7. Scott Veitch, Emilios Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. 2-nashr. – London: Routledge, 2012. – 305 p.
8. H.L.A. Hart. The Concept of Law. 3-nashr. – Oxford: Oxford University Press, 2012.